

**Oriental Journal of Philology**

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF VERB TENSE FORMS IN ARABIC  
CONDITIONAL SENTENCES****Salokhiddin U. Kurbonov***Teacher**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies.**[qurbansalah@gmail.com](mailto:qurbansalah@gmail.com)**Tashkent, Uzbekistan***Nigina A. Akhrorova***Teacher**Academic lyceum**Uzbekistan State World Languages University**E-mail: [niginaahrorova30@gmail.com](mailto:niginaahrorova30@gmail.com)**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Arabic language, conditional sentence, verb tense, tense shift, irrealis, modal meaning.

**Received:** 08.05.26

**Accepted:** 09.05.26

**Published:** 10.05.26

**Abstract:** This article analyzes the functional characteristics of verb tense forms in Arabic conditional sentences. It compares the perspectives of classical Arabic grammarians, such as Sibawayh and Ibn Jinni, with modern Western linguistic theories (B. Comrie, J. Lyons, etc.). The research findings indicate that in Arabic conditional constructions, past or present tense forms often denote potential or hypothetical future situations rather than strict grammatical time.

**ARAB TILI SHART ERGASH GAPLARIDA FE'L ZAMONLARINING FUNKSIONAL  
XUSUSIYATLARI****Saloxiddin O'. Qurbonov***O'qituvchi**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**[qurbansalah@gmail.com](mailto:qurbansalah@gmail.com)**Toshkent, O'zbekiston***Nigina A. Ahrorova***O'qituvchi**Akademik litsey**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

[niginaahrora30@gmail.com](mailto:niginaahrora30@gmail.com)

Toshkent, O'zbekiston

---

### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** arab tili, shart ergash gap, fe'l zamoni, zamon siljishi, irrealis, modal ma'no.

**Annotatsiya:** Maqolada arab tili shart ergash gaplarida fe'l zamonlarining funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Unda Sibavayh va Ibn Jinni kabi klassik arab tilshunoslarining qarashlari zamonaviy G'arb lingvistik nazariyalari (B. Komri, J. Layonz va b.) bilan qiyoslanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arab tili shart konstruksiyalarida o'tgan yoki hozirgi zamon shakllari ko'pincha qat'iy grammatik vaqtni emas, balki kelajakdagi ehtimoliy yoki gipotetik vaziyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

---

### ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ГЛАГОЛЬНЫХ ВРЕМЕННЫХ ФОРМ В УСЛОВНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЯХ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

**Салохиддин У. Курбонов**

Преподаватель

Высшая школа арбистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

[qurbansalah@gmail.com](mailto:qurbansalah@gmail.com)

Ташкент, Узбекистан

**Нигина А. Ахророва**

Преподаватель

Академический лицей

Узбекский государственный университет мировых языков

[niginaahrora30@gmail.com](mailto:niginaahrora30@gmail.com)

Ташкент, Узбекистан

---

### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** арабский язык, условное предложение, время глагола, сдвиг времени, ирреалис, модальное значение.

**Аннотация:** В статье анализируются функциональные особенности глагольных временных форм в условных предложениях арабского языка. В работе проводится сопоставление взглядов классических арабских грамматистов, таких как Сибавейхи и Ибн Джинни, с современными западными лингвистическими теориями (Б. Комри, Дж. Лайонз и др.). Результаты исследования показывают, что в арабских условных конструкциях формы прошедшего или настоящего времени зачастую обозначают потенциальные или гипотетические ситуации в будущем, а не строгое грамматическое время.

---

**Kirish.** Hozirgi zamon tilshunosligida fe'l zamon kategoriyasi nafaqat grammatik shakl sifatida, balki murakkab semantik va funksional tizim sifatida ham talqin qilinmoqda. Ayniqsa, ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida, xususan, shart ergash gaplarda fe'l zamonlarining qo'llanishi an'anaviy zamon tushunchasidan chiqib, modal ma'no, ehtimollik, faraziylik va irreallik kabi kategoriyalar bilan uzviy bog'lanadi. Shu jihatdan arab tilshunosligida shart konstruksiyalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Arab tilida shart ergash gaplarda fe'l zamonining grammatik shakli bilan uning haqiqiy zamon ma'nosi o'rtasida ko'pincha nomuvofiqlik kuzatiladi. Ya'ni, fe'l o'tgan zamon shaklida qo'llangan bo'lsa-da, mazmunan kelasi zamon yoki faraziy (noreal) holatni ifodalashi mumkin. Bu holat til tizimida zamon va modal ma'nolarning o'zaro kesishganligini ko'rsatadi va mazkur masalani chuqur o'rganishni talab etadi.

**Adabiyotlar sharhi va metodologiya.** Mazkur muammo klassik arab grammatikasi doirasida ham keng yoritilgan. Xususan, Sibavayh, al-Mubarrad, Ibn al-Sarrāj va Ibn Jinnī kabi olimlar shart ergash gaplarning semantikasi va unda fe'l zamonlarining funksional yuklamasini izohlashga harakat qilganlar. Ularning qarashlarida shart konstruksiyalarining asosiy xususiyati sifatida voqeaning kelasi zamonga bog'liqligi va fe'l shaklining bu ma'noni ifodalashdagi ikkilamchi roli ta'kidlanadi. Zamonaviy tilshunoslikda esa ushbu masala yangi nazariy yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqilmoqda. Jumladan, Bernard Comrie tomonidan ilgari surilgan "zamon siljishi" (back-shifting) nazariyasi, F.R. Palmerning modal kategoriyaga oid qarashlari hamda J. Lyonsning zamon va modal ma'no o'rtasidagi munosabat haqidagi konsepsiyalari shart ergash gaplarda fe'l zamonlarining funksional talqinini kengaytiradi. Bu yondashuvlar arab tilidagi hodisalarni umumtilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Arab tilshunosligida shart ergash gaplarda fe'l zamonlarining qo'llanishi ham klassik, ham zamonaviy tilshunoslikning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha ma'lumotlarni bir qator arab tiliga va ingliz tiliga oid manbalar va kitoblarda uchratish mumkin. Mazkur ishda yirik arab va ingliz olimlarining, xususan Sibavayhning "Al-Kitab", al-Mubarradning Al-Muqtadab, ibn as-Sarrajining Al-Uşūl fi'n-naḥw, Ibn Jinnining al-Khaşā'is kabi klassik davr arab grammatikasi olimlarining asarlaridan, shuningdek, zamonaviy ingliz tilshunos olimlaridan Bernard Comriening Tense, F. R. Palmerning – Mood and Modality, J. Lyonsning "Semantics" kabi manbalaridan foydalangan holda shart konstruksiyalarining semantikasi tadqiq etildi. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tipologik metod asosiy o'rin tutadi. Shuningdek, shart ergash gaplar tarkibidagi fe'l zamonlarining funksional-semantik tabiatini yoritishda deskriptiv tahlil va kontekstual ma'no aniqlash usullaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Maqolada olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelingan:

Grammatik va real zamon nomuvofiqligi: Arab tilidagi shart ergash gaplarda fe'ning grammatik shakli (masalan, o'tgan zamon shakli) har doim ham o'sha zamonni anglatmasligi aniqlangan. Zamon siljishi: Shart gaplarda fe'l shakllari ko'pincha real vaqtni emas, balki kelajakdagi ehtimoliy, faraziy yoki irreal (noreal) holatlarni ifodalashga xizmat qilishi isbotlangan. Vaqt va Modallik kesishuvi: Fe'l zamonlarining qo'llanishi shart konstruksiyalarida nafaqat vaqtni, balki so'zlovchining voqeaga bo'lgan munosabatini (shubha, ehtimol, shart) ko'rsatuvchi modal ma'nolar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatib berilgan. An'anaviy va zamonaviy qarashlar uyg'unligi: Maqola klassik arab tili grammatik an'anasi va zamonaviy lingvistik nazariyalar o'rtasidagi umumiylik hamda farqli jihatlarni ochib bergan.

Klassik arab grammatikasi olimlari. Sibavayh (VIII asr) – al-Kitāb. Yondashuvi: arab tili grammatik tuzilmasini birinchi bo'lib tizimli tavsiflagan Basra maktabi olimi. Fikri: Sibavayh shart bog'lovchisi *لو* (*law*) mazmunini “bir narsa sodir bo'lganida sodir bo'lishi mo'ljallangan (bo'lgan bo'lur edi) narsaning harfi” deya ta'riflaydi. U *لو* bilan kelgan shartli jumlada fe'llar odatda maziydagi (o'tgan zamon) shaklda kelsa-da, bu bilan voqea haqiqiy o'tgan zamonda sodir bo'lganini emas, balki boshqa bir shartga bog'liq bo'lgan faraziy holatni ifodalashini ta'kidlaydi. Masalan, “*عمر و قام زيد قام لو*” jumlasida “Agar Zayd turganida edi, Amr ham turgan bo'lur edi” degan ma'noni anglatar ekan, bu yerda har ikkala fe'l maziydagi shaklda kelsa ham, voqea amalga oshmagan shart-sharoit tasvirlanmoqda. (Sibavayh, 1988, p. 143-144).

Mubarrad (IX asr) – al-Muqtaḍab. Yondashuvi: Sibavayh an'analarini davom ettirgan Basra grammatika maktabi vakili. Fikri: Mubarradning qayd etishicha, shart ergash gaplarida fe'l shaklan o'tgan zamonda bo'lsa ham, mazmunan kelasi zamonga ishora qilishi mumkin – chunki shartning o'zi tabiatan hali sodir bo'lmagan ishga dalolat qiladi. U “shart faqat sodir bo'lmagan ishga (ya'ni kelajakka) taalluqli bo'lgani sababli, shart jumlasida o'tgan zamon fe'li ham kelasi zamon ma'nosini anglatadi” deya izohlaydi. Demak, “agar u kelsa” mazmunidagi iborada arab tilida fe'l o'tgan zamonda (*ja'a* keldi) shaklida kelishi mumkin, zero shart ma'no jihatidan kelgusidagi xayoliy holatni ifodalaydi (Al-Mubarrad, 1994, p. 560-563)

Ibn al-Sarrāj (X asr) – Al-Uṣūl fi'n-naḥw (Ibn Jinnī al-Khaṣā'is asarida keltirilgan). Yondashuvi: arab grammatik nazariyasiga chuqur tahliliy yondashgan Basra olimi. Fikri: Ibn al-Sarrāj fe'l shakllari zamonga xos ma'no ifodalashi uchun turlicha ekanini ta'kidlar ekan, shart bog'lovchisi bilan kelgan jumalarda fe'l zamoni funksional jihatdan o'zgarishini qayd qiladi. Uning izohicha, agar ma'no noaniqligi bo'lmasa, shart ergash gapda fe'ning boshqa zamon shaklini qo'llash mumkin – chunki shartning o'zi voqeaning kelajakda sodir bo'lishi sharti bilan bog'liqligini tushuntirib turadi (Ibn al-Sarraḡ, 1996, p. 1005). Masalan, “*جلست قمت إن*” jumlasida

(“agar sen turding, men o‘tirdim” shaklan o‘tgan zamonda) har ikkala fe‘l o‘tgan zamonda bo‘lsa-da, shart bog‘lovchisi (إن) tufayli bu gap kelajakdagi shartli holat – “agar tursang, (albatta) o‘tiraman (yoki o‘tiraman deb va‘da beraman)” ma‘nosini bildiradi. Shunday qilib, arab grammatik an‘anasida shart ergash gap doimo istiqboldagi (kelasi zamondagi) voqeaga ishora qilishi, mazmunan kelasi zamoni anglatish uchun hozirgi yoki o‘tgan zamon shakllari ishlatilishi mumkinligi ta‘kidlangan. Ibn Jinnī (X asr) – al-Khaṣā‘iṣ Yondashuvi: tilda formal-belgilar ortidagi ma‘no va funksiyani izohlovchi zamonasi uchun ilg‘or lingvistik tahlilchi. Fikri: Ibn Jinnī arab tilidagi shartli tuzilmalarda zamon kategoriyasi kontekstga ko‘ra “siljishi” mumkinligini nazariy asoslab bergan. Unga ko‘ra, shart ergash gap mazmunan baribir kelasi zamonga oid bo‘lgani bois, fe‘lning o‘tgan zamon shaklda kelishi ham kelasi zamondagi voqeani tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Ibn Jinnī misol tariqasida “قَمْتُ قَمْتُ إِنْ” (“agar turdim, o‘tirdim”) kabi gapni tahlil qilib, unda قَمْتُ (o‘tgan zamon “turdim”) shakli ishlatilganini, bu shakl ma‘no jihatidan kelasi zamoni va‘da yoki qat‘iy tasdiq vazifasini bajarishini ta‘kidlaydi Uning izohicha: shart jumlasida o‘tgan zamon qo‘llanishi – “masalani aniq qilish va tasdiqlash uchun, ya‘ni bu go‘yo shak-shubhasiz bajariladigan va‘dadir, xuddi o‘tgan ish kabi aniq” degan ma‘no effektini beradi. Demak, Ibn Jinnī fikricha, o‘tgan zamon formasi shart ergash gapda kelasi zamoni ma‘no (irrealis holatni) kuchliroq ta‘kidlash uchun qo‘llanadi (Ibn Jinniy, 1952, p. 332).

Zamonaviy ingliz tilshunos olimlari. Bernard Comrie (1985) va 1986 yildagi maqolalari. Yondashuvi: fe‘l zamon va holatlarga tipologik-semantik nuqtai nazardan yondashgan. Fikri: Comrie shart ergash gaplarda fe‘l zamonining “siljishi” (back-shifting) hodisasini batafsil tasvirlagan. Uning ta‘rificha, shart konstruktsiyasidako‘pincha hozirgi yoki kelasi zamondagi ma‘noni ifodalash uchun grammatik shakl o‘tgan zamonga siljiydi, masalan: hozirgi/kelasi zamon ma‘nosini berish uchun o‘tgan zamon formasi, o‘tgan zamon ma‘nosi uchun esa undan oldingi (“pluperfect”) forma ishlatiladi. Comrie fikricha, faqat yuqori darajada faraziy yoki nohaqiqat shart holatlaridagina zamonning bunday siljishi sodir bo‘ladi – ya‘ni voqea amalga oshmasligi aniq bo‘lgan (“unreal”) shartlarda zamon formasi bir pog‘ona o‘tganga siljiydi, ammo haqiqatga yaqinroq yoki ehtimolli shartlarda bunday siljishga ehtiyoj yo‘q. Masalan, ingliz tilida “If I had money, I would buy a car” jumlasida had (o‘tgan zamon) aslida hozirgi zamondagi “menda pul bo‘lsa” ma‘nosini ifodalaydi – bu morfologik o‘tgan zamon, funksional esa hozirgi zamon faraziy ma‘nodir (Comrie, Bernard, p. 1005).

F.R. Palmer – Mood and Modality (1986). Yondashuvi: fe‘l modalligi va munosabat kategoriyalarini qiyosiy tahlil qilgan. Fikri: Palmer shart ergash gaplarda modal ma‘no ikki karra ifodalanishini (“double marking”) qayd etadi. Uning ta‘kidlashicha, shartli jumalarda har ikki qism (protasis va apodosis) modal xarakterga ega bo‘lib, bu zamonaviy ingliz tilida “o‘tgan zamon + o‘tgan zamon” shakllar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, “If it had rained, we would have

gone home” kabi o‘tmish uchun nohaqiqat shart(counterfactual past) qurilishida ingliz tilida had rained (pluperfect) va would have gone shakllari qo‘llanadi – Palmer buni “past-past” strategiya deb ataydi. Bunday jumlada birinchidan, o‘tgan zamon shakli voqeani vaqt jihatdan o‘tgan davrga ko‘chiradi, ikkinchidan, ayni o‘tgan zamon shakli yana qo‘llanib, voqeaning haqiqiy emasligini (modal unreallikni) bildiradi. Shu tariqa, Palmer nazarida, shart konstruktsiyasida zamon formasi faqat vaqtni emas, gap egasining voqea haqiqatligi borasidagi ishonchsizligini ham ko‘rsatadi, ya’ni zamon va modal ma’no uyg‘unlashib, ikki barobar belgilangan (Palmer, Frank Robert. 2001, p. 74-76).

John Lyons – Semantics, Volume 2 (1977). Yondashuvi: tilshunoslikda ma’no va grammatik kategoriya uyg‘unligini izohlovchi nazariyotchidir. Fikri:Lyons shart jumlalardagi zamon formalarini aslida modal ma’no tashuvchisideb talqin qiladi. Uning izohicha, ingliz tilida kelasi zamoni ifodalovchi alohida affiksial zamon shakli yo‘qligi va “will” yordamchi fe’li modal xarakterga egaligi (bashorat, niyat ifodasi) tufayli “if” bilan kelgan ergash gaplarda odatda will ishlatilmasdan, hozirgi zamon shakli qo‘llanadi, bu esa grammatik zamon emas, voqeaga bo‘lgan munosabat (modal ehtimollik)ni ko‘rsatishdir. Shuningdek, Lyons shuni ta’kidlaydiki, shartli konstruktsiyalardagi o‘tgan zamon formasi ham ko‘pincha vaqtga nisbatan “uzoqlik” yoki “nohaqiqatlik” (remoteness) modal ma’nosini ifodalaydi (Lyons, John. 1977, p. 423)

Masalan, “If I were you...” jumlasida were fe’li grammatik jihatdan o‘tgan zamon ko‘rinishida bo‘lsa-da, bu yerda zamon ma’nosi emas, balki shaxsning haqiqatdan yiroq holatini (irrealis shartni) bildiruvchi modal funksiyani bajaradi. Lyons xulosasiga ko‘ra, shart ergash gaplarda “zamon” kategoriyasining vazifasi an’anaviy vaqt ko‘rsatkichidan ko‘ra ko‘proq faraziylik darajasini ko‘rsatishdir, ya’ni zamon shakllari (hozirgi, o‘tgan) bu yerda funksional ravishda voqeaning ehtimoliy yoki xayoliy ekanligini ifodalashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, arab tilidagi shart ergash gaplarda fe’l zamon shakllari ko‘pincha an’anaviy vaqt ma’nosidan ko‘ra funksional va semantik vazifani bajaradi. Klassik arab grammatikasi olimlari shart konstruktsiyalarida o‘tgan zamon shaklining qo‘llanishini kelajakdagi faraziy yoki ehtimoliy voqealarni ifodalash bilan bog‘laganlar. Sibavayh va al-Mubarrad shartli tuzilmalarda o‘tgan zamon shaklining kelasi zamon mazmunini anglatishi mumkinligini ta’kidlagan bo‘lsa, Ibn al-Sarrāj va Ibn Jinnī bu hodisani semantik va stilistik jihatdan izohlab, uning voqeaning qat’iyligi yoki faraziyligini kuchaytiruvchi vosita ekanini ko‘rsatganlar. Zamonaviy tilshunoslar esa bu hodisani “zamon siljishi”, “modal remoteness” yoki “irrealis” kabi tushunchalar orqali izohlaydilar. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, klassik arab grammatikasi nazariyalari zamonaviy lingvistik qarashlar bilan ko‘plab umumiy jihatlarga ega bo‘lib, ular shart konstruktsiyalarida zamon shaklining nafaqat vaqtni, balki modal ma’noni ham ifodalashini tasdiqlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Sibavayh, Abu Bishr Amr. (1998). Al-Kitab. Vols. 1–5. Cairo: Maktabat al-Khanji. – 2350 p. (in Arabic).
2. Al-Mubarrad, Muhammad ibn Yazid. (1994). Al-Muqtadab. Ed. Muhammad Abdul-Khaliq Azima. Cairo: Al-Majlis al-A'la li-sh-Shuun al-Islamiyya. – 1620 p. (in Arabic)
3. Ibn al-Sarraj, Abu Bakr. (1996). Al-Usul fi-n-nahv. Vols. 1–3. Beirut: Muassasat ar-Risala. – 1480 p. (in Arabic)
4. Ibn Jinni, Abu-l-Fath Usman. (1952). Al-Khasais. Ed. Muhammad Ali an-Najjar. Cairo: Dar al-Kutub al-Misriyya. – 1250 p. (in Arabic)
5. Ibn Ya'ish, Muaffaquddin. (2001). Sharh al-Mufassal. Vols. 1–10. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya. – 2800 p. (in Arabic)
6. Comrie, Bernard. (1985). Tense. Cambridge: Cambridge University Press. – 173 p. (in English)
7. Palmer, Frank Robert. (2001). Mood and Modality. 2nd edition. Cambridge: Cambridge University Press. – 252 p. (in English)
8. Lyons, John. (1968). Introduction to Theoretical Linguistics. Cambridge: Cambridge University Press. – 519 p. (in English)
9. Peled, Yishai. (1992). Conditional Structures in Classical Arabic. Wiesbaden: Otto Harrassowitz Verlag. – 221 p. (in English)